



TOSHKENT SHAHAR OLMAZOR TUMANI HOKIMINING QARORI

Toshkent 100095, Kichik xalqa yo'li ko'chasi, 1-uy. Tel.: (71) 207-31-41

2022 - yil 21 - yanvar

29-14-197-Q/22

Olmazor tuman hokimligi

Xalq deputatlari Olmazor tumani Kengashining 2022-yil 21-yanvardagi VI-35-1-14-197-K/22-sonli qarori ijrosi haqida

O'zbekiston Respublikasi Budjet kodeksining 119, 126, 143-moddalariga asosan, Xalq deputatlari Olmazor tumani Kengashining 2022-yil 21-yanvardagi VI-35-1-14-197-K/22-sonli qarori ijrosini ta'minlash maqsadida

Q A R O R Q I L A M A N:

1. Xalq deputatlari Olmazor tumani Kengashining 2022-yil 21-yanvardagi VI-35-1-14-197-K/22-sonli qarori ijro uchun qabul qilinsin.

2. Tuman mahalliy budjetining 2022-yil 1-yanvar holatiga shakllangan erkin qoldiq mablag'lari hisobidan, Yangihayot tumanini tashkil etish ishlarini moliyalashtirish uchun 480,0 mln.so'm;

“Fuqarolar tashabbusi jamg'armasi”ga 2 880,0 mln.so'm;

tuman hokimligiga, Tuman hokimligi matbuot xizmati uchun 3 oy muddatga outsorsing usulida qo'shimcha xizmat jalb qilish ishlari uchun 48,0 mln.so'm;

Tuman hududidiga videokuzatuv vositalarini o'rnatish va dasturlash ishlari uchun 600,0 mln.so'm;

78-sonli maktabgacha ta'lim tashkilotini tamirlash ishlari uchun 1 000,0 mln.so'm;

Xalq deputatlari Olmazor tumani Kengashi deputatlari faoliyatini

muvoqiflashtirish, qulay sharoit yaratish va ish samaradorligini yanada oshirish maqsadida Xalq deputatlari Olmazor tumani Kengashi deputatlari uchun 30 ta planshet xarid qilish ishlari uchun 182,9 mln.so‘m;

Olmazor tumani hokimining mahallalardagi yordamchilari uchun planshet, noutbuk va mebel jihozlarini xarid qilish ishlari uchun 600,0 mln.so‘m;

Olmazor tumani 4-sonli Ichki ishlar bo‘limini ta‘mirlash ishlari uchun 707,0 mln.so‘m;

Tuman hokimligining foydalanishga topshirilgan binosini 2-qavatida joylashgan majlislar xonasini zaruriy moddiy-texnikalar bilan jihozlash ishlari uchun 130,0 mln.so‘m;

Tuman Mahalla va oilani qo‘llab-quvvatlash bo‘limiga, Olmazor tumani bo‘yicha "Namunali" deb topilgan mahalla fuqarolar yig‘inlari hodimlari hamda jamoatchilik asosida faoliyat yuritayotgan shaxslarni rag‘batlantirish ishlari uchun 41,1 mln.so‘m;

Hududida tadbirkorlik ob‘ektlari va homiyarlar yo‘q bo‘lgan va qisman mavjud bo‘lgan Olmazor tumanida joylashgan mahalla fuqarolar yig‘inlarining ma‘muriy binolari uchun yuzaga kelgan kommunal qarzdorliklarni qisman qoplash ishlari uchun 147,0 mln.so‘m;

Tuman Obodonlashtirish boshqarmasiga, Tuman Obodonlashtirish boshqarmasi ma‘muriy binosini ta‘mirlash ishlari uchun 600,0 mln.so‘m;

Alohida muhim va mas‘uliyatli ishlarni bajarayotgan budjet tashkilotlari rahbarlari, hokimlik, moliya, g‘aznachilik xodimlarini erishilgan natijalar asosida bir oylik lavozim ish haqi miqdorida bir martalik mukofotlash ishlari uchun ilovaga asosan 263,4 mln.so‘m;

Olmazor tumani mahalliy budjetining zahira jamg‘armasi mablag‘lari hisobidan, Tuman hokimligiga, Tuman hokimligi binosiga tashrif buyuruvchi va faoliyat yuritishi rejalashtirilayotgan tashkilotlar hodimlariga ko‘tarinki ruh ulashish maqsadida binoning ichki qismini bezash ishlari uchun turli xil hajmdagi fotosuratlar harid qilish ishlari uchun 80,0 mln.so‘m;

tuman hokimligi binosida tashkil etilgan oshxonada tuman hokimligi binosida faoliyat yuritayotgan tuman hokimligi hamda bo‘lim va bo‘linma hodimlarining ovqatlanish xarajatlarini qoplash ishlari uchun 150,0 mln.so‘m;

Tuman hokimligiga kirish qismidagi ommiviy navbatma-navbat, birin-ketin o'tishi uchun yo'laklarga o'rnatilgan maxsus aylanuvchi qurilmani tuman hokimligining yangi foydalanishga topshirilgan binosining kirish qismiga o'rnatish hamda tuman hokimligiga kirish va ichki qismidagi 7 ta eshiklarga elektron dastur bilan integratsiyalashgan elektron kalitli (plastik magnit karta) elektron qulflar o'rnatish ishlari uchun 33,0 mln.so'm;

Xalq deputatlari Olmazor tuman Kengashining bo'shab qolgan saylov okruglarida deputatlar saylovini o'tkazishda saylov byulletenlarini chop ettirish ishlari uchun 10,9 mln.so'm;

Tuman hokimligida tashkil etilgan Olmazor tumani qo'riqlash bo'limining 2-otryad shaxsiy tarkibining 1 ta 8 soatlik qo'riqlash postining 2022-yil davomida faoliyat yuritishi hamda favqulotda holatlar to'g'risida ogohlantiruvchi tugma faoliyati uchun 54,0 mln.so'm;

"Ayollar daftari"ga kiritilgan xotin-qizlarning shaxsiy va o'rganishda jami 59 000 ta so'rovnoma blankalarini chop etish ishlari uchun 26,6 mln.so'm mablag' yo'naltirilsin.

3. Tuman Moliya bo'limi (D.Xatamov):

2022-yil tuman mahalliy budjetiga tegishli o'zgartirish kiritilsin.

4. Olmazor tumani hokimligi bosh hisobchisi (A.Uralov), Olmazor tumani Moliya bo'limi (D.Xatamov), tuman Mahalla va oilani qo'llab-quvvatlash bo'limi (T.Teshaev), Olmazor tumani bo'yicha G'aznachilik bo'linmasi (I.Karaxanov), tuman Obodonlashtirish boshqarmasi (D.Iskandarov):

ajratilgan mablag'larni o'rnatilgan tartibda maqsadli sarflanishi ta'minlansin.

5. Tuman Moliya bo'limi (D.Xatamov):

ajratilgan mablag'larni o'rnatilgan tartibda Toshkent shahar mahalliy budjetiga o'tkazilishi ta'minlansin.

6. Olmazor tumani hokimligi bosh hisobchisi (A.Uralov):

ajratilgan mablag'larni o'rnatilgan tartibda "Fuqarolar tashabbusi jamg'armasi"ga o'tkazilishi ta'minlansin.

7. Olmazor tumani bo'yicha G'aznachilik bo'linmasi (I.Karaxanov):

ajratilgan mablag'larni o'rnatilgan tartibda moliyalashtirilishi ta'minlansin.

8. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish tuman hokimining birinchi o‘rinbosari J. Israilov zimmasiga yuklansin.

Tuman hokimi



A. Umarxonov

Olmazor tuman hokimining
2022 yil 21 yanvardagi
29-14-197-Q/22-son qaroriga
1-ilova

Alohida muhim va mas'uliyatli ishlarni bajarayotgan budjet tashkilotlari rahbarlari, hokimlik, moliya, g'aznachilik xodimlarini erishilgan natijalar asosida bir oylik lavozim ish haqi miqdorida bir martalik mukofotlash uchun ajratilgan mablag'lar

ming so'mda

T/r	Tashkilot nomi	Ajratilgan mablag'	Shundan:	
			I-guruh xarajatlari	II-guruh xarajatlari
1	Tuman hokimligiga	200 909,0	160 727,0	40 182,0
2	Tuman Moliya bo'limiga	37 533,0	30 026,0	7 507,0
3	Olmazor tumani bo'yicha G'aznachilik bo'linmasiga	21 558,0	17 246,0	4 312,0
4	Tuman Obodonlashtirish boshqarmasi	3 307,0	2 645,0	662,0
Jami:		263 307,0	210 644,0	52 663,0